

## Faqirni ham, shohni ham siymosini yarata olgan san'atkor

Ma'naviyat va ma'rifatni targ'ib qilishning turli usullari bor. Taniqli san'atkor va olimlarning ishtirokida o'tkaziladigan tadbirlar ana shu maqsadga xizmat qiladi.

Institutimizda o'tkazilishi an'ana tusini olgan "Ibratli, ijodkor insonlar" ruknidagi tadbir ham ko'pchilikda yaxshi taassurot qoldirdi.

Bu insonni xalqimizga tanishtirib o'tirishga hojat yo'q. Chunki o'zining ajoyib rollari, betakror san'ati bilan barchamizga tanish, qadrdon bo'lgan O'zbekiston xalq artisti Tesha Mo'minovdir. Ular yaratgan bir-biridan ajoyib Oybekning "Qutlug' qon" asaridagi Yo'lchi, Abdulla Oripovning "Sohibqiron" dramasiidagi Amir Temur, "Boy ila xizmatchi" asaridagi G'ofir, jahon klassikasida yaratgan turli-tuman xarakterli obrazlari, «O'zbekfilm», «Mosfilm», «Tojikfilm»da ijro etgan yuzlab rollari o'zbek kino va teatri xazinasida muhim o'rin tutadi.

O'zbek Milliy akademik drama teatrlining ustoz aktyorlaridan biri Tesha Mo'minovning yaratgan rollari ta'sirli, yurakka yetib boradi.

Aktyorlik qismatini tanlab, poytaxtga o'qishga kelaman deganimda, - deya so'z boshladi ular. Oilada yolg'iz farzand bo'lganligim bois ota-onam bunga rozi bo'lishmagan. San'at oliygohini tugatgach esa teatr hayotimning bir bo'lagiga aylandi. Ota-onam qishloqda duo qilib o'tirishardi. Uchinchi kursligimda Hamza nomidagi akademik drama teatriga ishga kirganman. Mana, shundan beri yillar o'tdi, umrim u bilan bog'lanib ketdi. Umuman, sahna taqdirimga, hayotim mazmuniga aylandi.

Teatr - hayot ko'zgusi. Unda har bir kishi o'z aksini, qalb iztiroblarini, yorqin umidlarini ko'radi. Tomoshabinda ana shunday tuyg'uning nechog'li uyg'onishi teatrning qudratiga bog'liq. O'ylaymanki, milliy teatr jamoasi ana shu mas'ul vazifani uddalamoqda.

Teatrda klassik asarlar sahnalashtirilsagina, biz inson ruhiyatiga yo'l topamiz. Shu yo'l orqali inson o'zligini anglaydi, o'zini yaratadi, kashf etadi. Boshqacha qilib aytganda, har bir inson hayoti o'ziga xos drama. Unda sevinch-iztirob, baxt-baxtsizlik mujassam. Klassik asarlar ana shu mohiyatni ochib beradi, kishini fikrlashga da'vat etadi. Masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Bu zamon bilan hamnafaslik. Bugungi kunda bizni ham, tomoshabinni ham yaxlit bir narsa — kelajagi buyuk davlatning ravnaqiga hissa qo'shayotgan irodali, ilm-ma'rifatli, noyob qobiliyatga ega bo'lgan, o'sib kelayotgan yosh avlodga har tomonlama o'rnak bo'la oladigan "Zamonamiz qahramoni"ning yorqin siymosini yaratish, ko'rish qiziqtiradi.

✘ Aktyor teatrda mayda-chuyda rollar bilan umrim o'tib ketmasa, yaxshi rollar kelsa-yu, mahorat bilan ijro etib, muxlislar qalbiga kirib borsam, degan o'y-tashvishda yashaydi. Endi dramaturglarimiz ham zamon bilan hamnafas dramalar yaratishsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi. Hozir eng dolzarb masala teatrni mumtoz, zamonaviy, qolaversa, o'zbek milliy spektakllari bilan boyitish, ko'tarish kerak.


Amir Temur rolini o'ynashni orzu qilib Abror Hidoyatov, Shukur Burxonov singari atoqli aktyorlar armon bilan o'tib ketishdi. Tarixan buyuk shaxsning yaxlit obrazni yaratish menga nasib etganidan g'ururlanaman.

Zamonlar bo'ldiki, Amir Temur rolini o'ynash u yoqda tursin, bu haqda o'ylashning o'zi xatarli edi. Haqiqatdan ham Amir Temur rolini ilk bora o'ynash ustoz san'akorlarimiz uchun zabt etilmagan cho'qqi bo'lib qolgandi.

Birinchi marta menga «Amir Temur» spektaklida o'ynashni taklif etishganida, ilm ulamolari-yu teatrshunoslar buyuk siymolar obrazini yaratib bo'lmasligini aytishgandi. Yuragimda esa shu rolga

nisbatan ishtiyoq ustun chiqib, Sohibqironning ruhi poklariga tilovat qilib, "Amir Temur" spektaklida o'ynadim. Ammo... oson kechmadi, albatta. Spektakl ko'p marotaba qo'yildi.

1996 yil "Amir Temur yili" deb e'lon qilingach, yangi avlod Amir Temurni mukammal bilishi uchun ham sahna asari yaratilishi kerak edi. O'shanda atoqli shoir Abdulla Oripovning «Sohibqiron» dramasi sahnalashtirildi, bosh rolni o'ynashni ikkinchi marta ham menga topshirishdi. Rol ustida beqiyos kuch-quvvat topib ishladim. Katta iztirob va mas'uliyat yuragimni ezib turardi. Spektaklning muvaffaqiyatli chiqishiga, albatta, dramaning zo'r yozilganligi ham sabab bo'ldi. Rejissyorning og'ir, mashaqqatli mehnati ham tahsinga loyiq. Ana shu tarzda kuchlar umumlashgan holda Amir Temur obrazi yaratildi. Bu sharaflı ish menga nasib etganidan Yaratganga shukronalar aytaman.

Aslida, poytaxtga ishga kelganimda Yo'lchiga o'xshab, o'ta ishonuvchanligim, oqko'ngilligim  tufayli ko'p pand yeganman. Ota-onam qishloqda "Soddagina o'g'limni o'zing panohingda asragin, begona shaharda nokaslar aldamasin, adashmasin" deb duo qilib yashardilar. Balki onamning duolari ijobat bo'lib, teatrdam o'zimga o'xshagan Yo'lchi rolini o'ynash nasib etgandir. Oybek «Qutlug' qon» asarida Yo'lchi obrazini osmondan olmagan. U yonimizda yashayotgan iymoni butun odamlarning kechmishlarini, atrofimizdagi fojialarni, yuragimizdagi og'riqlarni mahorat bilan ochib bergan.

Bir kuni rol o'ynayotganimni ko'rgan Shukur aka yoniga meni chaqirtirdi-da:

— San'atda o'g'rilik qilgani kelgan bo'lsang, ketaver. Teatr o'g'rilik qiladigan joy emas, — dedi o'ziga xos savlatdor ovozi bilan.

— San'atdan nimani ham o'g'irlash mumkin, ustoz? — dedim hayron bo'lib.

— Seningcha so'zni yolg'ondan yodlab aytish o'g'rilik emasmi? Shunchaki rol o'ynash emas, sahnada yashash kerak. Sahnaga har bir chiqishingda maqsad, mohiyat bo'lsin. Har bir o'ynagan roling voqea bo'lsin. Yig'lasang, xalq yig'lasin, kulsang kulsin, jim tursang sukutga cho'msin. Tomoshabinni har qanday holatda ham ishontirgin, sehrlay bilgin. O'shanda bir kuni sahna seni ardoqlaydi, mehnating qadrlanadi, — dedi Shukur aka.

Shukur aka — betakror aktyor, o'ziga ham, olamga ham sig'magan inson edi. U kishidan teatrdam bir ulug'vor maktab qoldi. Bugun shogirdlarimga ham ustozlardan olgan o'g'itlarni uqtirib kelaman.

— Teatr o'ziga xos serqirra hayot. Har bir spektakl esa hayot ichidagi hayot. U shunday mavqe va maqomga erishishi lozim. Buning uchun yuqorida ta'kidlaganimdek, yaxshi dramalar, mahoratli rejissyorlar, talantli aktyorlar kerak. Mana shu uchta birlikning fikri bir joydan chiqsa, teatr gurkiraydi. Avvallari oyda bir marta teatrga tushmagan odamni dunyodan bexabarlikda ayblashardi. Hozir texnika rivojlanayotgan bir davrda ko'pchilik teatrga kelmasa ham televizor yoki internet orqali xohlagan spektaklini yoki kinosini ko'rishi mumkin. Bu bir tomondan yaxshi, albatta. Lekin u surat-da, jonli holat emas! Teatr baribir teatr-da! Tomoshabin disklardan ko'ra spektaklni o'z ko'zi bilan ko'rsa, ma'lum muddat qahramon bilan yashasa, hayratlanadi, zavqlanadi.

- O'g'lingiz Tolibjon Mo'minov ham izingizdan borib, aktyorlikni tanladi. Bunga qanday qaraysiz? - degan savolga shunday javob berdilar.
- Tolibjonning bir-ikki rollarini kuzatgan tomoshabinlar menga ijobiy fikrlar bildirishdi. U hali juda ko'p va xo'b mehnat qilishi kerak. Men buni har qadamda ta'kidlayman. Aktyorlik qismati og'ir va zalvorli. Bu haqda Tolibjonga gapiraverishimdan zeriksa ham charchamayman. Endi ota kasbini tanlagan ekan, bu yo'lda sabr-qanoat tilayman, ustozlarning yo'lini bersin!

Tadbir savol va javoblar yo'sinida qiziqarli va maroqli tarzda o'tdi. Tadbir nihoyasida institut

rektori O'.P.Umurzakov va "Gumanitar fanlar" kafedrası a'zolari, professor Hojiakbar Hamidov Tesha Mo'minovga o'z minnatdorchiligini izhor qilishdi.

**"Gumanitar fanlar" kafedrası o'qituvchisi: Bahriddin Muqimov axboroti**

**Institut matbuot kotibi: Rahimboy Jumaniyozov**